

HAR BIR DARSDA KREATIV YONDASHUV– TA'LIM SAMARASIDIR

Polvonova Nuriya Rustamovna

Qashqadaryo viloyati Mirishkor tuman

11-umumta'lim maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada darslarda o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish texnologiyalari haqida so'z borib, kichik maktab o'quvchilarini noan'anaviy fikrlashga va tez aniq hamda samarali qaror qabul qilish qobiliyatini oshirish shu bilan birga kreativ fikrlash samaradorligini oshirish haqida ma'lumot berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *kreativ, ta'lim- tarbiya, texnologiya, fikrlash qobiliyati, kreativ yondashuv, noan'anaviy fikrlash.*

Shiddat bilan takomillashib borayotgan texnika va tezlik asri deb nom olgan hozirgi zamonamizda insonning orzu hayollari amalga oshmoqda bunga birgina misol qachonlardir tasavurga sig'magan g'oyalar bugungi kunda insonning ongu shuri va oddiy texnologiya asosida yaratilib va kundalik ehtiyojga xizmat qilmoqda. Isonyat qushga havas qilib samaliyotni yaratdi va ko'kga parvoz etmoqda, baliqqa nazar solib dengizda suzmoqda, samoga boqib koinatni zab etmoqda va shunga o'xshagan yana yuzlab misollar keltirish mumkin. Bunday ixtiro va g'oyalarning vujudga kelishida albatta insoning go'yasi va yaratuvchanlik qobiliyati asos bo'ladi. Har bir insonda o'ziga xos qobiliyat va qiziqish bo'lib shu xususiyatlarni rivojlantirish yoki qotib qolishiga birinchi navbatda mehnat va mehnatga yo'naltiruvchi ta'lim bosqichi bu boshlang'ich ta'lim bo'lib ta'lim beruvchilar ichida eng avvalo boshlang'ich sinf o'qituvchisi turadi. Shu sababli bolani kichik sinflardan oq fikrlash qobiliyatini oshirish boshlang'ich talimda katta mas'uliyat beradi.

“... bugungi kunda ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning obro'sini ko'tarish, shu bilan bir qatorda bugun o'qituvchilarning o'zlari ham ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha ijodiy yondashishi lozim”.

Prezidentimiz takidlaganidek yangicha ijodiy yondashish zaruriyati tug'iladi, bu zaruriyat yuzasidan kreativ fikrlovchi yoshlarimizni yetishtirib chiqarishimiz kerakdir. Kreativlikning o'zi nima ligi haqida qisqacha ma'lumot: Kreativlik so'zini ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta'riflagan. Kreativlik (lot. creatio –yaratish, vujudga keltirish) – bu insonning noodatiy g'oya, fikr bera olish, muammolarni takrorlanmas, original yechimini topish, tafakkurning an'anaviy shakllaridan voz kecha olishga bo'lgan qobiliyatidir.

Darslarda o'qituvchi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning kreativ yondashuv asosida qobiliyatini rivojlantirishda quyidagi tavsiyalarni ko'rib chiqamiz:

➤ Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tomonidan erilgan ko'p savollarni e'tiborsiz qoldirmaslik va rag'batlantirib turish;

➤ O'quvchilarning mustaqil fikrlashlarini qo'llab turish va mas'uliyatlik hisini oshirish;

➤ O'quvchilar mustaqil tarzda tadbir va turli masalalarni tashkil etishiga sharoit yaratib berish;

➤ Eng asosiy jihatlardan biri bu bolalarning qobilyat yuzasidan va umumiy holatda qiziqishlariga jiddiy etibor berish;

O'quvchilarining kreativ yondashuv qobilyatini rivojlantirish bilan bir qatorda bu qobilyatni so'ndiruvchi jihatlarni ham mavjud bo'lib ulardan bazilarini ko'rib o'tamiz:

- O'quvchilarning tavakkal qilishlariga imkon bermaslik;
- Bildirgan fikr va harakatiga qa'tiy tarzda qarshilik bildirish, do'q po'psa qilish;
- Shaxsiy hayotida orzu hayollari, tasuvvuri natijalariga beetiborlik bildirish;
- Yonidagi yoki boshqalarni o'mak qilib ko'rsatish va uni ustin qilib ko'rsatish;
- Bajargan ishi va bildirigan fikrdan faqat yomon tarafini ko'rsatish;

Ta'lim - tarbiya bu har bir davrning eng muxim masalalaridan biri bo'lib boshlang'ich sinflardagi kreativ fikrlashga o'rgatish bo'yicha ham ta'limtarbiyaning o'rni salmoqli hisoblanadi. Tarbiya berishda ham ta'lim berishda ham yangi inovatsiyon va kompetensiyaviy yondoshuvlarga etibor berishimiz kerak bo'ladi. Xususan yosh avlodni eski ta'lim tizimi bilan qiziqtirish mushkil masala shu sababli yangi intellektga undovchi dars tizimida dars o'tish lozimdir. Buni uchun inovatsiyon va kompetensiyaviy dars turlarini tanlash joizdir.

Yangi ko'nikmalarni olayotgan bolada ong osti tafakurining shaklanishi jadal tus oladi va fikrlar, g'oyalar tug'ilib o'quvchida intellekt oshishi kuzatiladi. Intellektning oshishi diqatlikni kuchaytirib yangi bilimlarni qabul qilishda katta ro'l o'ynaydi. Ta'lim tizimimizda kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirishimiz hozirgi zamonoviy texnika asrida ertamiz egalarining o'z kasbi bo'yicha yetuk mutaxassislar bo'lib shakllanishida o'z tamoilini tashkil etadi.

Darslarda o'quvchilarni kreativ yondashuvga o'rgatuvchi eng maqul pedtexnologiyalarni izlab topish va ularni rivojlantirish lozimligi yuzaga chiqanida sinfning yosh jihatidan va bolalarning intellekt qobilyati hamda muhitning tasiri o'rganilgan holda tanlash zarurdir. Bu borada maqbul tanlov pedtexnologiyalari ichida muamoli ta'lim olish maqsadga muvofiqdir. Muamoli tarzda dars o'tib fikrlash qobilyatini rivojlantirishda natija beruvchi usullar mavjud:

- Qarama -qarshi vaziyatlarni yaratish va bolalarning fikrlarini uyg'unlashtirish;
- Fikr bildirgan o'quvga fikr ichidan muamoli so'z topish;
- Muamoli savolga tez va aniq reaksiya bildirishni yuqori baholash;
- Aniqlik va samarali vaziyatni yaratuvchanglikni oshirish bo'yicha masala va vazifalarni tug'dirish;

Muamoli ta'limda noto'g'ri qo'llash oqibatida bolaning qobilyatini so'ndirib qo'yishi mumkin bo'lgan holatlar mavjud:

- Mos kelmaydigan fikrlarni jamlash;
- Fikrlarini bayon etgan o'quvchiga turli muamoli vaziyat tug'dirish ortiqcha yuklash;
- Tez lekin aniq bo'lmagan fikrga qattiy jazo qo'llash va shashtini qaytarish;
- Aniq lekin samara keltirmagan o'quvchini kamsitmasdan o'qituvchi tomonidan fikrni to'ldirmaslik.

Xulosa o'rnida har bir darsni tashkil etishda DTS amal qilish va to'g'ri tashkil etish jihoslashga katta etibor berish, o'quvchilarga erkinlikni his etishida sharoit yaratish. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning turli muhitda yetib kelganligini inobatga olgan holda

psixologik jarayonlardan foydalanib eng avvalo hamjihatlikni rivojlantirgan holda asta – sekinlikda fikrlash qobiliyatini tashkil etish bo'yicha natijaviy dasturni tuzish va o'quvchining bilim, ko'nikma va malaksini yuzaga chiqarish bo'yicha samarali ishlarni rivojlantirish zaruriyati tug'iladi. Shu bilan bir qatorda sinf muhitida samimiyatlikni va sof raqobatni vujudga keltirish, o'quvchi faqat baho uchun harakat qilmasligini taminlash, rag'bat va jazoni meyorida qo'llash, har bir berilgan fikrlarni inobatga olish va ularni birgalikda tuzatish bu esa o'zaro hamjihatlik muhitini keltirib chiqaradi. Biridan ikkinchining fikrini ustun qo'ymaslik psixologik xususiyatidan va qiziqishidan kelib chiqib baholash. Har doimo imkoniyatga katta e'tibor berish va sharoitdan kelib chiqan holda imkoniyat yaratishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq ta'limi va oliy ta'lim tizimi o'qituvchilari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda so'zlagan nutqi. 2019.08.23.
3. “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” moduli bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent 2015, 40 – bet.
4. Haydarov M. “Boshlang'ich sinflarda xalqora kompetensiyani shakllantirish” **“TA'LIMDA FILOLOGIYANI RIVOJLANTIRISHNING GLOBAL MASALALARI”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Jizzax – 2022, 460 bet.
5. <https://lex.uz/> (internet sayti ma'lumotlaridan foydalanildi).